

“KELAJAK SOATI” MASHG‘ULOT ISHLANMASI

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

2-HAFTA Mavzu: “Vatan qayerdan boshlanadi?”

1–4-sinf o‘quvchilari uchun

Mashg‘ulot maqsadi

TA’LIMiy	O‘quvchilarga Vatan tushunchasining insonning oilasi, uyi, mahallasi va yaqinlari bilan bog‘liqligini tushuntirish.
TARBIYAViy	O‘quvchilarda oilaga mehr, yaqinlarga hurmat, uy va mahallaga g‘amxo‘rlik qilish, Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish.
RIVOJLANTIRUVCHI	Oila suhbatidan olingan xulosalarni eslash, o‘z fikrini sodda va aniq ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash va umumiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Eslatma: Bu mashg‘ulot 1-haftaning uyga vazifasi oilada o‘tkazilgan suhbat asosida quriladi. Mashg‘ulot boshlanishidan oldin o‘quvchilar oilaviy suhbatlarini eslab kelishlari kerak.

Kutilayotgan natijalar

- O‘z fikrini mustaqil ifodalay olish.
- Oila, mahalla, jamiyat va Vatan o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglay olish.
- Suhbat va muhokama jarayonida tinglash, fikr almashish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini namoyon etish.
- Vatanga mehr, hurmat va mas’uliyatni ifodalovchi kundalik amallarni anglay olish.
- O‘z fikri va munosabatini og‘zaki, yozma hamda ijodiy shakllarda ifodalay olish.

Mashg‘ulot ishlanmasi

3 daqiqa | TASHKILIY QISM (“Yaxshi tilak”)

O‘QITUVCHI: O‘quvchilar bilan salomlashadi, davomatni aniqlaydi, qisqa ijobiy kayfiyat mashqi o‘tkazadi.

O‘QITUVCHI: Assalomu alaykum, bolajonlar! Keling, kayfiyatingizni do‘stingizga so‘zsiz uzating. Tabassumingizni, quvonchingizni yoki yaxshi tilagingizni bir harakat bilan ko‘rsating. Do‘stingiz esa uni qabul qilib, keyingi do‘stiga uzatadi.

O‘QUVCHILAR: Kayfiyatlarini do‘stlariga so‘zsiz uzatadilar: masalan, tabassum, bosh barmoq, qo‘l bilan yurakcha shaklini hosil qilib.

5 daqiqa | MAVZUGA KIRISH (Savol-javob)

O‘QITUVCHI: (Dorskaga “VATAN” so‘zini yozadi.) - Vatan deganda nimalarni tasavvur qilasiz?

O‘QUVCHILAR: Navbat bilan javob beradilar (oila, uy, maktab, do‘stlar va h.k.), o‘qituvchi javoblarni doskaga yozadi.

8 daqiqa | OILADAGI SUHBATNI ESLASH (Juftlikda bir vaqtning o‘zida almashish)

O‘QITUVCHI: Endi uyga bergan vazifamiz haqida gaplashamiz. Kim ota-onasi yoki oila a‘zolari bilan “Vatan qayerdan boshlanadi?” mavzusida suhbatlashdi?

Hammangizning fikrini bir vaqtning o‘zida bilib olish uchun shunday qilamiz: hozir juftlikda o‘tirasiz. Men “boshladik” desam, ikkovingiz bir vaqtda - avval biringiz, keyin ikkinchingiz - o‘z oilaviy suhbatingizni 1 daqiqa ichida bir-biringizga gapirib berasiz. Boshladik!

O‘QITUVCHI: Vaqtни kuzatib turadi (jami 2 daqiqa: har biriga 1 daqiqadan), sinf orasida yurib, juftlarni tinglaydi.

O‘QUVCHILAR: Barcha juftlar bir vaqtning o‘zida, parallel ravishda bir-biriga oilaviy suhbatini gapirib beradi va tinglaydi - shu tariqa hamma o‘quvchi ovozi eshittirish imkoniga ega bo‘ladi.

O‘QITUVCHI: Vaqt tugadi! Endi kim juftlikdan eshitgan fikrini butun sinfga aytib bermogchi - o‘z fikringizni emas, juftingizniki aytib bering. Sizga qaysi fikr yoqdi? Nima uchun? Siz bu fikrga qo‘shilasizmi?

O‘QUVCHILAR: 3–4 nafar o‘quvchi ko‘ngilli bo‘lib, juftidan eshitgan fikrni butun sinfga qisqacha aytib beradi va o‘z munosabatini bildiradi.

Eslatma: Bu mashg‘ulot tufayli barcha o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida gapirish/tinglash imkoniyatiga ega bo‘ladi - faqat 3–4 kishi emas, butun sinf ishtirok etadi. Vaqt tejaladi va hamma o‘z fikrini ifodalaydi.

7 daqiqa | MUHOKAMA (Fikrlar xaritasi)

O‘QITUVCHI: -Siz aytgan barcha fikrlarni birlashtirsak, shunday xulosaga kelamiz: Vatan tushunchasi bizning oilamiz, uyimiz va mahallamiz bilan chambarchas bog‘liq. Vatanga mehr va mas’uliyat avvalo oiladagi munosabatlarimiz, kundalik odatlarimiz va yashayotgan muhitimizda namoyon bo‘ladi.

O‘QUVCHILAR: O‘qituvchini tinglaydi, kerak bo‘lsa o‘z fikrini qo‘shadi.

8 daqiqa | AMALIY TOPSHIRIQ: “VATAN OILAMDAN BOSHLANADI” (Individual ijodiy ish - sinfga mos darajalashtirilgan)

O‘QITUVCHI: (Har bir o‘quvchiga varaq tarqatadi). Varaqning o‘rtasiga “MENING OILAM” deb yozing. Atrofiga esa Vatanga mehrni oilada qanday ko‘rsatishingiz mumkinligini ifodalang.

O‘QUVCHILAR: 1–2-sinf o‘quvchilari rasm chizish orqali, 3–4-sinf o‘quvchilari esa rasm va qisqa jumlar orqali o‘z fikrlarini ifodalaydilar.

6 daqiqa | TAQDIMOT (Kichik taqdimot)

O‘QITUVCHI: Kim o‘z ishini ko‘rsatib, “Men uchun Vatan - ...” jumlasini davom ettirib beradi?

O‘QUVCHILAR: O‘z ishlarini namoyish etadilar va “Men uchun Vatan - ...” jumlasini davom ettiradilar.

5 daqiqa | XULOSA VA REFLEKSIYA (“Mehr gulchambari” — jamoaviy amaliy mashg‘ulot)

O‘QITUVCHI: (Dorskaga yoki devorga katta doira shaklidagi asos (gulchambar shakli) ilib qo‘yadi. Har bir o‘quvchiga bittadan qog‘oz gulcha yoki bargcha tarqatadi.)-Keling, ‘Men Vatanimga mehrimni ... orqali ko‘rsataman’ jumlasini har biringiz o‘z gulingizga yozing (yoki og‘zaki ayting), keyin uni bizning umumiy ‘Mehr gulchambari’ miz — doskadagi doiraga yopishtiring.

O‘QUVCHILAR: Navbat bilan o‘rnidan turib, jumlasini baland ovozda aytadi va gulini/bargini doskadagi doiraga yopishtiradi — shu tariqa sinf birgalikda katta “Vatanga mehr gulchambari”ni yaratadi.

O‘QITUVCHI: Barcha gullar joylashtirilgach: -Qarang, har birimizning mehrimizdan bitta yagona gulchambar hosil bo‘ldi — xuddi Vatanga bo‘lgan mehrimiz kabi, u ham bir-birimiz bilan birlashganda go‘zal bo‘ladi!

Eslatma: Agar vaqt tor bo‘lsa, o‘quvchilar juftlikda ishlab, bitta gulni ikkovi birga to‘ldirishi mumkin.

O‘QITUVCHI: Keling, bugungi xulosani hammamiz birga aytaylik: “Vatan oilamdan boshlanadi!”

O‘QUVCHILAR: Sinf birgalikda baland ovozda aytadi: “Vatan oilamdan boshlanadi!”

Oiladagi suhbatdan maktabdagi tahlilga o‘tish - qo‘shimcha savollar

O‘QITUVCHI: “Uyda ‘Vatan qayerdan boshlanadi?’ degan savolga qanday javob oldingiz? Sizning fikringiz oilangizdagi fikrga o‘xshadimi? Vatanga mehrni oilada qanday ko‘rsatish mumkin? Uyimizni, oilamizni va mahallamizni asrash Vatanga munosabat bilan qanday bog‘liq? Siz bugundan boshlab Vatan uchun qanday yaxshi ish qila olasiz?”

Refleksiya uchun yakunlovchi jumlar

“Men uchun Vatan - ...”

“Vatanga mehr - ...”

“Men oilamda Vatanim uchun ...”

Vatan uzoqdan boshlanmaydi. U biz yashayotgan uyimizdan, oilamizdan, mahallamizdan, yaxshi ishlarimizdan boshlanadi.

Uyga vazifa

O‘QITUVCHI: 1–2-sinf o‘quvchilari: “Oilamizda Vatanga mehr qanday namoyon bo‘ladi?” mavzusida ota-ona bilan og‘zaki suhbatlashadi va bitta yaxshi oilaviy amalni bajarib keladi - masalan, uyni ozoda saqlashga yordam beradi.

O‘QITUVCHI: 3–4-sinf o‘quvchilari: xuddi shunday suhbatlashadi, so‘ngra olgan bitta fikrini 2–3 gap bilan yozib keladi va bitta yaxshi oilaviy amalni bajarib keladi.